
Viloyat tarixi

Farg'ona viloyati O'zbekistonning qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri. Viloyat hududida topilgan tosh davri manzilgoxlari va qoyatoshlariga solingan suratlar vodiya odamlar eng qadimgi davrlardan beri yashab kelganliklaridan darak beradi. Farg'ona viloyatining tosh davri yodgorliklarini [1954-yil](#) A.P. Okladnikov rahbarligidagi arxeologiya otryadi o'rgangan. Vodiyning sharqiy qismidagi Qayroqqum, Xo'jag'or va Uchqo'rg'on makonlaridan mustye davriga oid tosh qurollar topildi. Vodiyning g'arbiy qismidagi qadimgi tosh davri madaniyatiga oid manzilgohlar mustye davridagi Qal'acha, Jarqo'ton va Qapchig'ay tosh qurollar ishlash ustaxonalari topilib o'rganildi. 1958-yil birinchi marta Markaziy Farg'onadan [mezolit](#) davriga oid mikrolit tosh qurollari topildi. Shuningdek, Markaziy Farg'onadagi Uzunko'l va Tayloqko'l atroflaridan mezolit va [neolit](#) davrlariga oid 24 ta manzilgoh borligi aniqlandi (1965). So'x vohasidagi 28 g'or va ungurlar (Selungur, Eshma, Obishir, Sur, Bel, Zim, Ovikambar, Bog'ishim va boshqalar) ro'yxatga olindi. Obishir g'orlaridagi madaniy qatlam yaxshi saklangan. G'orlarni qazish jarayonida mezolit davriga oid tosh qurollar, xayvon suyaklari topilgan. Bular o'sha davr turmushini o'rganish imkonini beradi.

1967 va 1969—70 yillarda [Sankt-Peterburgdagi](#) Ermitaj muzeyi xodimlari mezolit va neolit davrlariga oid 35 ta manzilgohtopdilar. Farg'ona viloyatining arxeologik yodgorliklarini o'rganishda Katta Farg'ona kanalining qazilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Kanalni qazish jarayonida jez davri, [quldorlik](#) va [zamindorlik](#) jamiyatlariga oid yodgorliklar topildi va tekshirildi. Quva va Toshloq tumanlari o'rtasidagi Akbarobod qishlog'ida jez davriga oid manzilgoh, Marg'ilonsoyning chap sohilida Oqtom qabristoni bo'lganligi aniqlandi. Farg'ona viloyatining [Quva tumanida](#) quldorlik davriga oid Taxyontepa, Farg'ona shahrida Simtepa (Chimtepa) kabi yodgorliklar topib o'rganilgan. Ayniqsa, [Quva](#) shahridagi miloddan avvalgi 5-asr va o'rta asr boshlariga oid topilmalar yaxshi tekshirilgan. 10—11-asrlarga doir tarixiy manbalarda bu shahar obodligi va kattaligi jihatidan vodiya Axsikatdan so'ng eng yirik shahar deb qayd qilingan. Arxeologik materiallar Marg'ilon shahri 10-asrda katta qishloq bo'lib, 11 — 12-asrlarda shaharga aylanganligini, [Rishton](#) esa 10-asrda katta shahar bo'lsa ham, 11—12 asrlarga kelib qishloq qiyofasiga kirib qolganligini isbotlaydi. O'troq [dehqonchilik](#), [chorvachilik](#) bilan shug'ullangan Chust madaniyatiga oid manzilgohlardan topilgan yodgorliklar [Farg'ona vodiysini](#) o'rganishda muhimdir. U yerda ishlab chiqarish kuchlari va xo'jalikning taraqqiyoti jez davrining oxirida dehqonchilik qabilalarining ijtimoiy tuzumida o'zgarish yuz berishiga, natijada ibtidoiy tartiblar tugab jamiyatdagi tabaqalanishga olib kelgan. Ro'zg'or anjomlarida xususiy mulkchilik kurtaklari ko'zga tashlanadi. Arxeologik tekshirishlar natijasi Farg'ona viloyatida qadimdan odamlar yashab, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanganligidan, kishilik jamiyatining keyingi bosqichlarida esa madaniyat rivojlana boshlaganligidan dalolat beradi.

2017-05-13 17:51:36